


**2021- yil yanvar-iyun oylarida
Navoiy viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 215,9 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **603,3 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

**3,215,9
mlrd. so'm**

112,8 %

**603,3
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **82,6** mlrd. so'mga o'sdi va **589,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **110,7** mlrd. so'mga ko'paygan va **540,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning may oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **102,7** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning may oyiga nisbatan 2020- yilning iyun oyida xizmatlar hajmi **92,7** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	3 215,9	112,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	138,0	115,6
Moliyaviy xizmatlar	735,1	116,7
Transport xizmatlari	554,7	110,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	473,1	106,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	126,9	107,9
Savdo xizmatlari	989,5	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	60,5	121,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	108,9	130,7
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	42,7	125,9
Ijara xizmatlari	58,6	133,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	50,4	120,8
Shaxsiy xizmatlar	79,6	123,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	152,1	118,9
Boshqa xizmatlar	118,9	108,0


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Savdo xizmatlari

30,8 %

Moliyaviy xizmatlar

22,9 %

Transport xizmatlari

17,2 %

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

4,7 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

4,3 %

Yashash va ovqatlanish xizmatlari

3,9 %

Boshqa xizmatlar

3,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **30,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **32,1 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish ijara (**33,4 %**), ta'lim (**30,7 %**), sog'liqni saqlash (**25,9 %**), shaxsiy (**23,7 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**21,5 %**), kompyuterlarni ta'mirlash (**20,8 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**18,9 %**) moliyaviy xizmatlar (**16,7 %**), va aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**15,6 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlari (**6,1 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 143,1 %.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – 14,4%.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **30,8 %** ni tashkil etib, bu esa **989,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **839,9 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **32,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

839,9

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

989,5

95,8

O'sish sur'ati, % da

106,1

2020- y.
yanvar-iyun

2021- y.
yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismining ko'prog'i, aniqrog'i **81,8 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **80,7 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **735,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **602,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **23,1 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **132,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **143,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **5,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,1 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **5,7 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,6 %**.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **17,2 %**.

2021- yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **85,3 %** ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-iyun

2021- y. yanvar-iyun

32,9

34,6

67,1

65,4

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **65,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **67,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **138,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **115,6 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **118,4** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **4,5 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **111,9 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **96,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.
yanvar-iyun



2021- y.
yanvar-iyun



█ Telekommunikatsiya xizmatlari

█ Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

█ Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

█ Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **108,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **130,7 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **81,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **109,1 %** qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

94,9
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-iyun

126,9
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-iyun

Xizmatlar hajmi

85,6 %

107,9 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **32,0** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun

Yashash bo'yicha
xizmatlar

15,4 %

84,6 %

15,7 %

84,3%

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,6 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Info


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**42,7 mlrd.
so'm**

1,3 %

125,9 %



**2021- y.
Yanvar-iyun**



**Xizmatlar
hajmi**

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**


**O'sish
sur'ati**

**31,2
mlrd. so'm**

1,2 %

101,4 %

**2020- y.
Yanvar-iyun**



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	3 215,9	112,8
Navoiy shahri	1 127,4	117,7
Zarafshon shahri	423,2	110,8
tumanlar:		
Konimex	80,3	109,0
Qiziltepa	302,5	111,0
Navbahor	206,2	108,3
Karmana	487,5	111,7
Nurota	156,6	108,6
Tomdi	46,4	109,3
Uchquduq	111,7	110,0
Xatirchi	274,1	109,8


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **35,0** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **33,8** %)ni Navoiy shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tomdi tumanida – **1,4** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **1,5** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 159,4
ming so'm



Hajmnning o'sishi

549,4
ming so'mga

110,9 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 159,4** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 610,0** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,9 %** da qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari



14 074
birlik



1 334
birlikga



110,5 %

65,3 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi


Ularning umumiyligi sonidagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,3 %**, sanoat **15,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,5 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **7,6 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,2 %** ni, sanoat **16,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,8 %** ni , qurilish **7,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (52,7 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 4,7 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

Savdo – 52,7

Boshqa turdagি xizmatlar – 29,5

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 9,5

Tashish va saqlash – 4,7

Sog'liqni saqlash – 2,1

Axborot va aloqa – 1,5

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **58,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **84,6 %** ga to'g'ri keldi.

